

UDC(UO‘K, YDK): 82.09.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MODALLIK KATEGORIYASINING QO‘LLANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR²⁵

Rahimova Mehribon Allayarovna

Urganch davlat universiteti

tayanch doktranti,

Urganch, O‘zbekiston

E-mail: uzteacher1221@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-0883-9392>

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Ushbu maqolada modallik kategoriyasining tilshunoslik va mantiq fanlaridagi nazariy asoslari, semantik tabiati hamda funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Modallik so‘zlovchining fikr mazmuniga va voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalovchi muhim lingvistik kategoriya sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda modallikning obyektiv va subyektiv turlari, ularning ifodalanish vositalari hamda til tizimidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, Sh. Balli, V.G. Gak, M. Halliday, N.A. Slyusareva, J. Yakubov va boshqa olimlarning modallik haqidagi ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada modallikning morfologik, leksik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi, xususan, modal fe‘llarning semantik imkoniyatlari keng ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot onomasiologik yondashuv asosida olib borilib, ingliz tilida “mumkinlik” modalligining sodda va qo‘shma gaplarda qo‘llanish xususiyatlari o‘rganilgan. Natijada modallik kategoriyasining kommunikativ jarayondagi ahamiyati, uning turli til vositalari orqali namoyon bo‘lish shakllari hamda lingvistik va mantiqiy modallikning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.	Modallik kategoriyasi, lingvistik modallik, mantiqiy modallik, mumkinlik modalligi, obyektiv modallik, subyektiv modallik, semantik kategoriya, funksional-semantik yondashuv, diktumva modus, ehtimollik, zaruriyat, real va noreal voqelik, predikativlik.

Received: June 09, 2026

Accepted: June 16, 2026

Available online: September 5, 2026

²⁵ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rahimova M. Zamonaviy tilshunoslikda modallik kategoriyasining qo‘llanilishiga doir ayrim mulohazalar.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 395-408.

SOME CONSIDERATIONS ON THE APPLICATION OF THE CATEGORY OF MODALITY IN MODERN LINGUISTICS

Rakhimova Mehribon Allayarovna

*Doctoral Researcher of
Urgench State University
Urgench, Uzbekistan*

E-mail: uzteacher1221@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-0883-9392>

ABSTRACT	KEYWORDS
This article analyzes the theoretical foundations of the category of modality in linguistics and logic, as well as its semantic and functional characteristics. Modality is regarded as an important linguistic category that expresses the speaker's attitude toward the content of an utterance and objective reality. The study examines the objective and subjective types of modality, the means of their expression, and their place within the language system. In addition, a comparative analysis is conducted of the scholarly views on modality proposed by such researchers as Ch. Bally, V. G. Gak, M. Halliday, N. A. Slyusareva, and J. Yakubov. The article explores the morphological, lexical, and syntactic means of expressing modality, with particular attention paid to the semantic potential of modal verbs. The research is carried out within the framework of the onomasiological approach, focusing on the use of the modality of possibility in simple and complex sentences in English. Furthermore, the communicative functions of modality, its significance in the process of speech activity, and its manifestations at different levels of language are discussed. The findings substantiate the importance of the category of modality in communication, its realization through various linguistic means, and the interrelationship between linguistic and logical modality.	Modality category, linguistic modality, logical modality, possibility modality, objective modality, subjective modality, semantic category, functional-semantic approach, dictum and modus, probability, necessity, real and unreal reality, predicativity.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ПРИМЕНЕНИИ КАТЕГОРИИ МОДАЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Рахимова Мехрибон Аллаяровна

Базовый докторант

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

E-mail: uzteacher1221@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-0883-9392>

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье анализируются теоретические основы категории модальности в лингвистике и логике, её семантическая природа и функциональные особенности. Модальность рассматривается как важная лингвистическая категория, выражающая отношение говорящего к содержанию высказывания и объективной действительности. В исследовании характеризуются объективный и субъективный виды модальности, средства их выражения и место в языковой системе. Кроме того, проводится сравнительный анализ научных взглядов на модальность, представленных в трудах Ш. Балли, В.Г. Гака, М. Хэллидея, Н.А. Слюсаревой, Дж. Якубова и других исследователей. В статье рассматриваются морфологические, лексические и синтаксические средства выражения модальности, а также семантические возможности модальных глаголов. Исследование выполнено на основе ономастического подхода, в рамках которого изучаются особенности функционирования потенциальной модальности (модальности возможности) в простых и сложных предложениях английского языка. В результате научно обосновываются роль категории модальности в коммуникативном процессе, формы её выражения с помощью различных языковых средств, а также взаимосвязь лингвистической и логической модальности.	Категория модальности, лингвистическая модальность, логическая модальность, потенциальная модальность (модальность возможности), объективная модальность, субъективная модальность, семантическая категория, функционально-семантический подход, диктум и модус, вероятность, необходимость, реальная и нереальная действительность, предикативность.

KIRISH

Modallik (lotinchadan *modus* – o‘lchov, me’yor, chegara, had, daraja, usul, yo‘sin, yo‘l, ravish, tariqa, tarz) – tilning, tafakkurning so‘zlovchining nuqtayi nazaridan mulohaza mazmunining munosabati voqelikka qanday bo‘lishi kerakligini ifodalovchi semantik kategoriyalaridan biri. Turli tillarda modallik kategoriyasi har xil lisoniy vositalar bilan ifodalanish xususiyatiga ega.

Hozirgi zamon tilshunosligida modallik tushunchasi nihoyatda keng qo‘llanib, semantik kategoriya sifatida ayrim ifoda shakli va turli ma’nolarning uyg‘unlashib ifodalanish xususiyatiga ko‘ra juda xilma-xildir. Hozirgacha modallik kategoriyasining mazmuni va ko‘lami haqida yagona to‘xtamga kelingan emas. Bu lingvistik modallik bilan mantiqiy modallik to‘laligicha bir-biriga mos kelmasligi bilan izohlanadi va har ikki fan uchun katta muammo hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, fan olamida modallik atamasi bilan faqat lingvistikagina shug‘ullanib qolmaydi. Ushbu hodisa falsafada ham, mantiqda ham, psixologiyada ham o‘z ifodasini topadi. Modallikning tarifi birinchi marta O.S. Axmanovanning lingvistik lug‘atida qayd qilingan, u modallikni so‘zlovchining mulohaza mazmuniga va mulohaza mazmunini shakl va mayl, modal fellar va h.k. kabi har xil leksik va grammatik vositalar bilan ifodalanadigan voqelikka munosabati sifatidagi kategoriya deb baholaydi.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda modallikdeganda, odatda, so‘zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya yoki so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati tushuniladi.

Tilshunos N.Q. Turniyozovning fikricha, “gap unsurlarining modallik belgisi bir tomondan so‘zlovchi shaxs ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularning anglatadigan ma’nolari bilan ham uzviy aloqadordir” (Turniyozov, Turniyozova., 2003, 22).

I.K. Mirzaevning ta’kidlashicha esa, “modallik fikrning voqelikka bo‘lgan munosabatlarining turli xil ko‘rinishlarini, shuningdek, bildirilayotgan narsalarning

subektiv tarzda tasniflanishining turlicha ko‘rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriyadir” (O‘zbek Milliy Ensiklopediyasi., 2004, 38).

Tilshunoslikda modallik gapning eng muhim belgisi sifatida o‘rganilsa, mantiq ilmida tafakkur shakli sifatida, hukmning muhim belgisi sifatida qaraladi. Modallikning bu xususiyati mantiqiy modallikni lingvistik modallik bilan bog‘lab o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi (Yakubov., 2007, 14).

Shveytsariyalik olim Sh. Balli modallik to‘g‘risida quyidagi fikr-mulohazalarini bildirgan: «Har qanday eksplitsit gap ikki qismdan iborat: ulardan biri tasavvurni hosil qiladigan jarayonga korrelativ (uyg‘unlashgan) bo‘ladi, uni «diktum» deb ataymiz; ikkinchisi fikrlovchi subekt amalga oshiradigan operatsiyalarga korrelyativ bo‘ladi, uni “modus” deb ataymiz. Modal fel va modal subektdan tashkil topgan modus diktumni to‘ldiradi. Modallik – gapning asosi (qalbi-yuragi), fikrsingari u ham so‘zlovchi subektning faol aqliy faoliyati natijasida yuzaga keladi. Binobarin, agar anglatilgan fikrda modallikning qandaydir bir ifodalanishi bo‘lmasa, uni gap deb atash mumkin emas” (Balli.Sh., 1955, 44).

Sh. Balli mantiqiy tuzilgan gap bo‘laklari orasidagi modal subekt, modal fel va dictum munosabatlarini tahlil qilar ekan, u modallik ma’nosi shaxssiz gaplarda emas, balki shaxsli gaplarda ko‘proq qo‘llanishini misollar yordamida tushuntirib berishga harakat qilgan.

V.G. Gak gapning semantik mohiyatidan kelib chiqib, uni dictum va modusga ajratadi. Uning fikricha, “diktum – voqelikni aks ettirsa, modus esa so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini (uning bilimi, shubha, hissiyoti, xohishi va shu kabilar)ni ifodalaydi” (Gak 1986, 253).

Ma’lumki, deontik modallik huquqiy va axloqiy meyoriy ma’nolarni (kerak, ruxsat, taqiq, buyruq, istak va h.k.) ifodalaydi. Masalan, M.A. Abdurazzoqovning fikricha, deontik modallik quyidagi uchta komponent bilan izohlanadi: a) modallik xarakteri, b) modallik mazmuni, v) modallik sharti. Tilshunos har bir modallik turiga qisqacha tarif berib shunday yozadi: “Modallik xarakteri harakatning bajarilishi *kerak bo‘lgan* (devoir feli bilan), *mumkin bo‘lgan*(pouvoir feli bilan) yoki bajarilishi *mumkin bo‘lmagan* (ne pas pouvoir faire modalligi bilan) til meyorlariga muvofiq

ifodalanadi. Modallik mazmuni zamirida esa vaziyat ishtirokchisi, yani istakni ifodalovchi modal subekt turadi. Modallik sharti deganda, M.A. Abdurazzoqov til vaziyatida harakatning amalga oshishi *kerak bo'lgan (mumkin, lozim bo'lmagan, mumkin bo'lmagan)* voqelikni tushunadi" (Abdurazzakov M.A., 1985, 24-25). Muallifning misollari zamirida ikkita semantik kategoriya, yani *zaruriyat* va *mumkinlik* kategoriyalari namoyon bo'layotganini ko'ramiz.

Shunday qilib, modallik lingvistikada "so'zlovchining xabar qilinayotganga munosabati", "gapning mazmunini reallik yoki noreallik" planida voqelikka bog'laydi.

Aytish joizki, modallik –modal munosabatlarning ikkita turini o'z ichiga oluvchi kategoriyadir. Bunga mos ravishda modallikning ikkita turini ajratib ko'rsatishadi: *obektiv modallikni va subektiv modallikni*.

Obektiv(tashqi) modallik deganda so'zlovchining unga xabar qilinayotgan faktlarga ishonchlilik darajasi tushuniladi. Obektiv modallikni ifodalashning asosiy vositasi mayllar hisoblanadi (darak, istak, buyruq).

Subektiv(ichki) modallik deganda subektning o'zi bajarayotgan ish-harakatga munosabati tushuniladi. Subektiv modallikni ifodalashning asosiy vositalaridan biri ingliz tilida modal fellar hisoblanadilar.

Demak, Obektiv modallik felning zamon mayllarini qamrab olib, gapda ifodalangan omazmunning borliqqa munosabati va gap mazmunining real yoki norealligini ifodalaydi. Subektiv modallik esa so'zlovchining o'z harakatiga munosabatini bildirib, tilda modal fellar, modal so'zlar kabi lisoniy vositalar yordamida ifodalanadi.

Modallikni ifodalashning eng yorqin vositasi modal fellar hisoblanadilar. Eng avvalidan modallik o'z aksini ham grammatik, ham leksik, ham intonatsion sathda, umuman olganda ham mulohazaning qismlarida topishiga va u ifodalashning turli usullariga ega ekanligiga etibor qaratish kerak. U turli xil grammatik va leksik vositalar bilan: mayllarning maxsus shakllari bilan; modal fellar bilan (masalan, ruscha: mojet, doljen; inglizcha: must, can); boshqa modal so'zlar bilan (masalan, ruscha: kajetsya, pojaluy; inglizcha: perhaps, likely); intonatsion vositalar bilan

ifodalanadi. Va aynan modal fellar hammasidan yorqinroq modallikning lingvistik hodisa sifatidagi ko‘p qirraliligini namoyish qiladilar.

Hozirgi paytda tilning funktsional xususiyatini o‘rganish tilshunoslikda eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. A. Abduazizov, M. Abdurazakov, V.G. Gak, A.V. Bondarko, D. Ashurova, B. Mengliev, N. Turniyozov, B. Tursunov, M. Umarxo‘jaev, O‘. Yusupovlar o‘z nazariy fikrlari bilan tilning kommunikativ funktsiyasini rivojlantirishga samarali ulush qo‘shdilar. Ular modallik kategoriyasining fonetik, morfologik, leksik va sintaktik sathlarda qo‘llanishiga etibor berib, tilning funktsional tomonini takomillashtirdilar.

Ushbu tadqiqot ham aynan shu yo‘nalishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda modallik kategoriyasining mantiq va lingvistikada qo‘llanishini ilmiy tahlil qilish bilan birga, sodda va qo‘shma gaplarda *“mumkinlik”* modallik semantik kategoriyasi ingliz tilida lisoniy birliklar bilan qo‘llanishi tekshirildi. Ushbu tadqiqot onomasiologik yondashuv, yani tilshunoslikdagi *“ma’nodan shaklga”* tamoyili asosida olib borildi.

“Manodan shaklga qarab boruvchi ilmiy tahlil, - deb yozadi A.V. Bondarko, - ma’lum semantik kategoriyaning muayyan maqsadga yo‘naltirilganini aniqlash bilan birga, mazkur ma’noni ifodalovchi turli til vositalarini qidirib topishga, ayniqsa, grammatik-leksik, grammatik-kontekstual, morfologik, leksik va sintaktik sathlarda erkin ifodalanmagan murakkab til vositalarini namoyish qilishga imkon beradi” (Bondarko A.V., 1984, 31, 13).

Darhaqiqat, tadqiqot obektiga funktsional - onomasiologik yondashuv turli sathlarda til vositalariga bo‘lgan munosabatni va semantik kategoriyaning matnda qanday yo‘llar bilan qo‘llanish xususiyatini o‘rganadi, shuningdek, nutqda muayyan ma’no (*mumkinlik* va h.k.) ni ifoda etish usullarini yoritishga, bir xil ma’noni ifodalovchi invariant ma’nolarni aniqlaydigan sinonimik modellarni va turli modal qurilmalarni tahlil qilishga yordam beradi.

O‘zbek tilshunosligida modallik semantik kategoriyaning rivojlantirishga, o‘z hissasini qo‘shgan tilshunoslar A.N. Kononov, G‘ Abdurahmonov, A. Hojiev, A. G‘ulomov, Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiev, I. Rasulov, X.

Doniyorov, G.N. Zikrillaev, N. Turniyozov, R. Rasulov, D.M. Nasilov, A. Nurmonov, N. Mahmudov, U. Tursunov, A. Muxtorov, Sh. Raxmatullaev, A. Mamatovlarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Ushbu ilmiy ishlarda hozirgi o'zbek adabiy tilida modallik kategoriyasi morfologik (felning analitik shakllari), grammatik(ko'makchi, to'liqsiz va modal fellar) va leksik usullar (modal so'z, yuklama va maxsus qo'shimchalar) orqali ifodalanishi bayon qilingan.

Ingliz tilshunosligida modallik kategoriyasiga bo'lgan munosabat bir oz o'zgacha bo'lib, ushbu kategoriyaning qo'llashda fel maylining mavjudligi tan olinmaganligi uchun fel shakllari asosiy morfologik kategoriya sifatida modallikni ifodalab, tashqi obektiv va ichki subektiv modallikka bo'linishi haqida J. Bo'ronov, I.P. Ivanova, V.V. Burlakova, G.G. I. Smirnitkiy, I.I. Xlebnikova, L.S. Barxudarov, M. Halliday, G.V. Kolshanskiy, L.S. Ermolaeva, N.A. Slyusareva, O'.K. Yusupovqimmatli fikr-mulohazalarini bildirganlar.

Mazkur muammoga bu qadar jiddiy etibor berilishining sababi, *birinchidan*, tekshirish obektining o'ta murakkabligi va keng qamrovliligi bo'lsa, *ikkinchidan*, bu lingvistikaning doimiy muammolaridan biri - til va tafakkur munosabatlarining bir ko'rinishidir.

Modallik kategoriyasining morfologik yo'llar bilan ifodalanishida german tillarida ham mayllar asosiy til vositasi sifatida katta rol o'ynaydi. Masalan, ingliz tili an'anaviy grammatikasida uch tamoyil bor: aniqlik, buyruq va istak mayllari. Mayl kategoriyasining modallik xususiyati va uning qo'llanishi haqida ingliz tili mutaxassislari o'z fikrlarini ilmiy va amaliy jihatdan bayon qilishgan.

G.V. Kolshanskiyning fikricha, "Modallik, umuman, gapning biror bo'lagiga tegishli bo'lmasdan, balki u gapning umumiy mazmunini qamrab olish xususiyatiga ega. Predikativlik aloqasi gapning mazmunini aniqlab keladi, ammo u hech qachon gapning ma'lum bir qismiga emas, balki uning umumiy mazmuniga tegishli bo'ladi. Ammo, bizningcha, modallik xususiyati so'zlovchining o'z gapiga bo'lgan munosabatini tavsiflamaydi".

I.B. Xlebnikova "Modallik kategoriyasi semantik kategoriya, ammo u sintaktik kategoriya emas", degan fikrni o'rta tashlaydi. Albatta, bu fikrga

qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki ushbu kategoriya morfologik (mayllar), leksik (modal so‘zlar, modal fe‘llar) va sintaktik (intonatsiya, so‘z tartibi) yo‘llar bilan berilar ekan, u har qanday gap mazmunidagi semantik va sintaktik tushunchaga asoslanadi. Bu esa so‘zlovchi va tinglovchi orasida kommunikativ muloqotni hosil qiladi. Bu yerda modallik kategoriyasini ifodalovchi til vositasi sifatida intonatsiya katta rol o‘ynaydi, chunki u modallikning sintaktik xususiyatini ochib bera oladi.

Ingliz tilshunosi M. Xellidey modallikni muloqotning muhim funksional xususiyati – shaxslararo funksiya (*interpersonal*) sifatida tushunib shunday yozadi: “Modallik muloqotda qatnashayotgan so‘zlovchi fikrining ifoda shaklidir (*inthespeechevent*)”. Uning fikricha, “ifoda shakli tufayli so‘zlovchi o‘z gapining semantik holati va ahamiyatini (*validity*) ochib beradi. Ko‘rinadiki, modallikni M. Xellidey tor ma’noda – til kategoriyasi sifatida faqat modal so‘zlar bilan mumkin bo‘lgan voqelik g‘oyasining ifodalashini tushunadi hamda muallif uni “so‘zlovchi sharhi” (*speaker’scomment*) deb ataydi” (Halliday M; 1976, 198).

O‘. Q. Yusupov modallik kategoriyasining ifodalanishini o‘zbek va ingliz tillaridagi shart ergash gapli qo‘shma gaplarning qiyosiy tahlilida ko‘radi. Shart ergash gaplarni muallif modal ma’nosiga ko‘ra to‘rt turga bo‘ladi: real, mumkin, shubhali va noreal shart ergash gapli qo‘shma gaplar (Yusupov., 1971, 102-118).

I.R. Galperin modallik kategoriyasini gaplarda emas, balki badiiy matnlar asosida ko‘rib chiqib, modallik kategoriyasini ifodalovchi ikki lug‘aviy elementga diqqatni qaratgan. Bularndan birinchisi epitet (*dreary*-g‘amgin, *bleak*-xafa, *sad*-qayg‘uli, *unmerciful*-shafqatsiz, *melancholy*-mayus, *evil*-odobsiz), ikkinchisi undov so‘zlardir (Galperin., 1981, 120).

I.R. Galperin modallik kategoriyasini epitet va undov so‘zlar orqali ifodalab, subektiv modallikni baholash xususiyatini izohlab berishga urinib ko‘rgan, deyish mumkin. Agar berilgan til materiallariga nazar tashlasak, ular hammasi bitta semantik maydonni hosil qiladi. Bu maydonni “predmet va uning holati” deb atashimiz mumkin, chunki epitet va undov so‘zlar obektiv borliqdagi narsalarning modallik xususiyatlaridan biri bo‘lgan “holat kategoriyasini” ifodalashga xizmat qiladi.

N.A. Slyusareva modallikni keng qamrovli hodisa sifatida tushunadi va uni universal semantik kategoriya deb hisoblaydi. Uning fikricha, “Modallik kategoriyasi so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati hisoblanib, uning qo‘llanish xususiyati ham keng semantik doirada bo‘ladi. So‘zlovchi sodir etayotgan har qanday voqelikni aks ettiruvchi – tasdiq-inkor, real-noreal, “mumkinlik”, istak, zaruriyat, inkor, shubha, afsuslanish, ishonchlilik, taxmin va h.k. ma’nolarning ifodalanishi modallikdir” (Slyusareva N.A., 1986, 51-52).

L.S.Ermolaeva esa asosiy e’tiborni modallik kategoriyasining differentsial belgilariga qaratib, modallik gapning asosiy belgisini tashkil qiladimi, degan savolga javob berishga urinib ko‘rgan. Muallif ushbu savolga ijobiy javob berish uchun gapning farq qiluvchi belgilaridan kelib chiqib, ularni ikki tipga ajratadi: “*birinchisi* modallik gapning asosiy belgisi shaklida “sof ko‘rinishda” bo‘lsa, *ikkinchisi* ushbu kategoriya tilda so‘z birikmalari bilan ifodalanadi” (Ermolaeva.,1963, 68).

Shunday qilib, ingliz tilshunosligidagi modallik kategoriyasiga oid nazariy fikrlarda bir qator muammolar mavjud. Bu tilda modallik kategoriyasini ifodalanishi va mayllarga bo‘lgan munosabatni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1) modallik kategoriyasini ifodalashda mayllar yo‘q mavjud emas; 2) modallik kategoriyasi mayllar yordamida beriladi, ya’ni u mavjud; 3) modallik kategoriyasini ifodalashda modal fe’llar faol ishtirok etadi.

Bizning nazarimizda, mazkur til vositalari bir-birini to‘ldiradi, modallik kategoriyasini tushunish va uni ifodalash morfologik, leksik va sintaktik usullar vositasida amalga oshishi mumkin, deb qarash ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Tilshunoslikda mavjud bo‘lgan modallik kategoriyasiga oid ilmiy ishlarni tahlil qilib, olimlarning nazariy qarashlarini bir tizimga solib, modallik semantik kategoriyasining turli til vositalari bilan ifodalanishini professor J.Yakubov quyidagi to‘qqizta semantik guruhga ajratib, asoslab bergan. Biz ham ushbu modallik kategoriyasining semantik guruhlarga bo‘linishini qo‘llab quvvatlaymiz va tadqiqotimizda domlaning nazariyasini rivojlantirishga harakat qilamiz:

1. So‘zlovchi aytayotgan fikrning gapdagi maqsadi, munosabati yoki gapning kommunikativ funktsiyasi. Bu semantik baholashning xususiyati shuki, hamma

gaplar o'z funksiyasidan kelib chiqib, kommunikativ guruhlarga (darak, so'roq, buyruq) bo'linadi. Bu ma'nolarning majmui quyidagi til vositalarini o'z ichiga oladi: morfologik (fel mayllari), sintaktik (gap modellari, prosodik-intonatsiya – intonatsiya).

II. So'zlovchining gap mazmunini real va noreal nuqtai nazardan baholashi. Bu modallik ma'nolari mayl shakllari, fe'l zamonlari, shuningdek, ba'zi bog'lovchi va yuklamalar yordamida ifodalanadi.

III. So'zlovchining gapda ifodalangan voqeliklarni (mumkin-ehtimol, zarur-kerak, xohish-istak) subekt yordamida baholashi. Bu semantik ma'nolar modal fe'llar va til qurilmalari yordamida beriladi.

IV. Tasdiq va inkor ma'nolarini ifodalovchi narsalar orasidagi mavjudlik yoki mavjud emaslik holatini anglatuvchi munosabatlar, belgilar va gapdagi real harakatni anglatuvchi voqelik. Ikkala semantik tushuncha taqqoslansa, birinchisining markerlari (ko'rsatkich belgilari) yo'q, ikkinchisining esa maxsus markerlari bo'lib, ular grammatik, leksik vositalar yoki yuklamalar orqali ifodalanadi.

V. Semantik ma'nolarning ikki turini baholash: a) so'zlovchining voqelikni (mumkin, zarur yoki istak) baholashi; b) so'zlovchining unga xabar qilingan voqelikka ishonchlilik darajasi. Ikkala baho turi ham tilda modal ravishlar, kirish so'zlar, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar bilan, shuningdek, modal fe'llar (mumkin, kerak) va infinitiv qurilmalar yordamida ifodalanishi mumkin.

VI. So'zlovchining gap mazmunidagi his-tuyg'u va sifat fazilatlarining ifodalanishi. Bu semantik tushunchalar undov so'zlar, leksik vositalar (yaxshi, yomon, ajoyib, uyat, qo'rqinch, dahshat va h.k.) va intonatsiya yordamida beriladi.

VII. Modallik obektiv va subektiv kategoriya bo'lib, gap mazmunining voqelikka munosabatini bildiradi. Obektiv modallikning asosiy ifodalanish vositasi hisoblangan fe'lning grammatik kategoriyasi mayl yordamida amalga oshadi, subektiv modallik esa leksik vositalar yordamida ifodalanib, ularga modal so'zlar, modal fe'llar va yuklamalar kiradi.

VIII. Konnotativ modallik ma'nolarini ifodalash: sevish, erkalash, hurmat, kichraytirish, kamsitish. Ushbu modallik turi hozirgi o'zbek tilida o'zbek millatiga xos bo'lgan –gina(-kina, -qina), -cha, -choq, -chak, -loq, -jon, -xon, -oy, -voy, -lar (dadamlar) kabi affiks va affikssimonlar so'zlovchining obektiv borliqqa, o'z nutqiga bo'lgan modal munosabatini bildirib keluvchi subektiv baho shakllaridir.

IX. Anqlik maylida reallik modal ma'noni ifodalash. Bizning nazarimizda, bu xususiyatda modallik alohida til kategoriyasi sifatida mavjud, ammo ayrim tilshunoslar fikricha, anqlik mayli modallik kategoriyasini ifodalash xususiyatiga ega emas (Yakubov., 2007, 80-81).

XULOSA

Bu fikr-mulohazalar asosida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, modallik kategoriyasini obektiv va subektiv semantik tur va guruhlariga bo'lib o'rganish tilshunoslikda katta ahamiyat kasb etadi. Obektiv modallik gapning zaruriy belgisi tufayli har qanday gapda bo'ladi, subektiv modallik esa gaplarda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shunga ko'ra, obektiv modallik gapning doimiy belgisi, subektiv modallik esa qo'shimcha belgisi hisoblanadi. Obektiv modallik tilda hamisha morfologik usulda mayl va fel zamonlari bilan ifodalansa, subektiv modallik leksik (modal fel va so'zlar, ko'makchi, gapning maxsus qurilmalari va h.k.) hamda sintaktik vositalar yordamida hosil bo'ladi. Buni modallik kategoriyasining faktik til materiali zaminida turli tillarda qo'llanishi va ifodalanishida kuzatishimiz mumkin.

Keng ma'noda "mumkinlik" deganda umumlashtirilgan ma'nosining barcha aqlga to'g'ri keladigan nozik farqlari ko'zda tutiladi, ularni "mumkinlik"ning haqiqatga aylanishining ma'lum jihatlari va turli xil voqeliklar bilan bog'lanishni aniqlash mumkin. "Mumkinlik" va voqelik – bu bizni o'rab turgan obektiv olamning harakati va rivojining ikkita ma'lum o'zaro bog'langan tomonlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Стереотип, 2013. – 45 с.
2. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1955. – 416 с.
3. Бондарко А. В. Функциональная грамматика. – Ленинград: Наука, 1984. – 136 с.
4. Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. – Москва: Высшая школа, 1986. – 312 с.
5. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – С. 113–123.
6. Halliday M. K. System and Function in Language: Selected Papers. – London: Oxford University Press, 1976.
7. Хлебникова И. Б. Еще раз о проблеме модальности в грамматике // Ученые записки Московского государственного педагогического института иностранных языков имени М. Тореза. – Москва, 1965. – С. 354–363.
8. Колшанский Г. В. О содержании категории модальности языка // Вопросы языкознания. – 1961. – № 1. – С. 94–98.
9. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 7-jild. – Toshkent, 2004. – B. 283.
10. Слюсарева Н. А. Проблемы функциональной морфологии современного английского языка. – Москва: Наука, 1986. – 215 с.
11. Turniyozov N., Turniyozova K. Funktsional sintaksisga kirish. – Toshkent: Fan, 2003. – 113 b.
12. Yakubov J. A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanish xususiyatlari: filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2007. – 169–175-b.
13. Yusupov U. K. Ingliz va o'zbek tillaridagi shart ergash gapli qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili: filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1971.
14. Ермолаева Л. С. О соотношении модальности и предикативности // Филологические науки. – Москва, 1963. – № 4. – С. 119–126.

REFERENCES

1. Akhmanova, O. S. (2013). Dictionary of Linguistic Terms. Moscow: Stereotype, p. 45.
2. Balli, Sh. (1955). General Linguistics and Issues of the French Language. Moscow: Military Literature Publishing House, 416 p.
3. Bondarko, A. V. (1984). Functional Grammar. Leningrad: Nauka, 136 p.
4. Gack, V. G. (1986). Theoretical Grammar of the French Language Morphology [Theoretical Grammar of the French Language. Morphology]. Moscow: Vysshaya Shkola, 312 p.
5. Galperin, I. R. (1981). Text as an Object of Linguistic Research. Moscow, pp. 113-123.
6. Halliday, M. K. (1976). System and Function in Language: Selected Papers. London: Oxford University Press.
7. Khlebnikova, I. B. (1965). On the Problem of Modality in Grammar. Moscow: MGPIIYaim. M. Toreza, pp. 354-363.
8. Kolshansky, G. V. (1961). К вопросу о содержании языковой категории модальности [On the Content of the Linguistic Category of Modality]. Questions of Knowledge, No. 1, pp. 94-98.
9. Uzbek National Encyclopedia (2004). Vol. 7. Tashkent, 283 p.
10. Slyusareva, N. A. (1986). Problems of Functional Morphology of Modern English. Moscow: Nauka, 2011.
11. Turniyozov, N., & Turniyozova, K. (2003). Introduction to Functional Syntax. - Тошкент: Фан, 2017.
12. Yakubov, Zh. A. (2007). The Expression of Modality in Logic and Language [The Expression of Modality in Logic and Language]. The doctoral dissertation has been prepared in Tashkent. 169-175.
13. Yusupov, U. K. (1971). Comparative analysis of English and Uzbek complex sentences with conditional clauses. PhD dissertation, Tashkent.
14. Ermolaeva, L. S. (1963). On the Correlation of Modality and Predicativity [On the Correlation of Modality and Predicativity]. Philological Sciences, No. 4, Moscow, pp. 119-126.